



“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga
solish agentligi direktori
_____ **A. Jumanazarov**
2025-yil 10-iyul

**O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi
yig‘ilishining 31-son bayoni**

2025-yil 10-iyul

Toshkent sh.

Raislik qiluvchi: A.Jumanazarov – O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktori

Qatnashganlar: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mas’ul xodimi J.Shakarov, O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari A.Zakirov, O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktori o‘rinbosarlari O.Tohirov, T.Mashanpin, boshqarma, bo‘lim boshliqlari hamda tizim tashkilotlari va hududiy bo‘limlari rahbarlari (*ro‘yxat bo‘yicha*)

KUN TARTIBI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Energetika, geologiya va tog‘-kon sanoati sohalaridagi vazirliklar, idoralar va xo‘jalik birlashmalari faoliyatining 2025-yil uchun eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 29-apreldagi 276(XDFU)-son qarori bajarilishi to‘g‘risida.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF–6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-son qaroriga asosan Agentlik va tizim tashkilotlarida ijro intizomini sifatli ta‘minlash to‘g‘risida.

3. Boshqa masalalar.

(Jumanazarov, Shakarov, Zakirov, Tohirov, Mashanpin, Xodjikariyev, Dodoyev, Muxitdinov, Orifboev, Asqarov, Usmanov, Abduraxmanov, Saidoripov, Kattaxodjayev, Abdukayumov, Sharipov, Jumanazarov)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-apreldagi “Energetika, geologiya va tog‘-kon sanoati sohalaridagi vazirliklar, idoralar va xo‘jalik birlashmalari faoliyatining 2025-yil uchun eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) tasdiqlash to‘g‘risida” 276(XDFU)-son Qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, Agentlikning 2025-yil 2-maydagi 49-son buyrug‘i tasdiqlanganligi **ta’kidlab o‘tildi.**

Agentlik direktori va uning o‘rinbosarlarining 2025-yil I va II chorak uchun mo‘ljallangan eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI)ning bajarilishi sarhisobi va III chorak rejasi **tahlil qilindi** hamda mas’ullar **hisoboti eshitildi**. Jumladan,

Agentligi direktori va uning o‘rinbosarlariga 2025-yil I chorakda **14 ta** ko‘rsatkich tasdiqlangan bo‘lib, barcha ko‘rsatkichlar to‘liq **bajarilgan**.

2025-yil II chorakda **19 ta** ko‘rsatkich tasdiqlangan bo‘lib, barcha ko‘rsatkichlar **bajarilgan**.

Shuningdek, Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi boshlig‘i va uning o‘rinbosarilarining eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) I - II chorakda amalga oshirilgan ishlari holati **tahlil qilindi**. Jumladan,

2025-yil I chorakda **9 ta** ko‘rsatkich tasdiqlangan **bo‘lib**, barcha ko‘rsatkichlar to‘liq **bajarilgan**.

2025-yil II chorakda **9 ta** ko‘rsatkich tasdiqlangan **bo‘lib**, barcha ko‘rsatkichlari **bajarilgan**.

Shu bilan birga, Yig‘ilishda, “Ijro.gov.uz” elektron tizimida **2025-yilning iyun oyi** yakunlari va **iyul oyida** bajarilishi belgilangan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning ijro holati birma-bir tahlil qilgan xolda tanqidiy **muhokama qilindi** hamda mas’ul ijrochilar hisoboti **eshitildi**.

Agentlik “Ijro.gov.uz” elektron tizimida mas’ul bo‘lgan (*asosiy ijrochi hisoblangan*) **2025-yil iyun oyida** bajarilishi belgilangan jami – **49 ta** topshiriqlar **mavjud bo‘lib**, bugungi kun holatiga **barchasining ijrosi ta’minlangan**.

Agentlik “Ijro.gov.uz” elektron tizimida mas’ul bo‘lgan (*asosiy ijrochi hisoblangan*) **2025-yil iyul oyida** bajarilishi belgilangan jami – **18 ta** topshiriqlar **mavjud bo‘lib**, bugungi kun holatiga **13 tasining (72 %)** ijrosi **ta’minlandi** va **5 tasi** ijro etish **jarayonida** (*shundan, 1 tasi ma’lumot uchun qabul qilindi*).

Ma’lumot uchun: iyul oyidagi topshiriqlarning 3 tasida normativ huquqiy-hujjat loyihasini ishlab chiqish masalasi bo‘lib, bugungi kunda 2 tasi o‘rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan.

Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari bo‘yicha Agentlik “Ijro.gov.uz” elektron tizimida mas’ul bo‘lgan (*asosiy ijrochi hisoblangan*) **2025-yil iyul oyida** bajarilishi belgilangan jami – **18 ta** topshiriqlar mavjud **bo‘lib**, bugungi kun holatiga **16 tasining (88 %)** ijrosi **ta’minlandi** va **2 tasi** ijro etish **jarayonida**.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan eshtilgan mutasaddi rahbarlarning hisobotlarini, shuningdek mavjud muammolar, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi takliflarini muhokama qilgan holda, yig‘ilish **qaror qiladi**:

1. Agentlikning boshqarma, bo‘lim hamda tizim tashkilotlari mas’ul rahbarlarining mazkur yig‘ilish kun tartibidagi masalalar yuzasidan hisoboti **ma’lumot uchun qabul qilinsin**.

2. Quyidagilar:

Agentlik direktori va uning o‘rinbosarlari faoliyatining 2025-yil III chorak uchun eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) rejasi **1-ilovaga muvofiq**;

Texnik jihatdan tartibga olish sohasida nazorat inspeksiyasi boshlig'i va uning o'rinbosarlari faoliyatining 2025-yil III chorak uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) rejasi **2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**

3. Agentlik direktorining birinchi o'rinbosari (A.Zakirov), direktor o'rinbosarlari (O.Tohirov, T.Mashanpin) 2025-yil III chorak uchun mo'ljallangan eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ijrosi yuzasidan ma'lumotlarni platformaga kiritilishi ta'minlansin.

4. Nazorat inspeksiyasi (A.Abdurahmonov, S.Niyozov, F.Samatov) 2025-yil III chorak uchun mo'ljallangan eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ijrosini o'z muddatida **bajarsin** hamda ma'lumotlarni platformaga kiritilishi **ta'minlansin.**

5. Agentlikning boshqarma va bo'lim boshliqlari hamda tizim tashkilotlari rahbarlari:

2025-yil iyul oyida "Ijro.gov.uz" elektron tizimida bajarilishi belgilangan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini tasdiqlangan "Kalendar grafik" va "Yo'l xarita" siga asosan muddatidan barvaqt va sifatli **ta'minlasinlar;**

ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjat loyihalarini belgilangan tartibda hamda iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy yondashgan holda o'z vaqtida, puxta va sifatli tayyorlab, Hukumatga kiritish uchun shaxsan mas'ul ekanliklari **belgilab qo'yilsin.**

6. TR va SBDAOB (D.Xodjickariev), Yuridik byuro (A.Kamilov), MBBTSAOB (A.Dodoev), MRO'BYTB (X.Alisherov), Standartlar instituti (A.Abdukayumov) **2025-yil 18-iyulga qadar** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-apreldagi PF-67-son Farmonining 9-bandiga asosan ishlab chiqigan qonun loyihasini o'rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasiga **kiritsin** hamda "Ijro.gov.uz" elektron tizimidan nazoratdan yechish choralarini **ko'rsin.**

7. Davlat nazorati inspeksiyasi (A.Abduraxmanov), "O'zTest" DM (J.Kattaxodjaev), "O'MMI" DM (L.Saidoripov), MBBTSAOB (A.Dodoev) KQKvaKNB (S.Kasimov) **2025-yil 19-iyulga qadar** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-dekabrda PQ-389-son qarorining 10.5-bandi hamda 2025-yil 7-fevraldagi PQ-44-son qarorining 48.a.3-bandi ijrosini **ta'minlab**, "Ijro.gov.uz" elektron tizimidan nazoratdan yechish choralarini **ko'rsin.**

8. Mazkur bayonning ijrosi ustidan nazorat Agentlik direktorining birinchi o'rinbosari A.Zakirov, direktor o'rinbosarlari O.Tohirov, T.Mashanpin zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktori
va uning o'rinbosarlari faoliyatining 2025-yil III chorak uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)

T/r	Vazifalar (asosiy mezonlar)	O'lchov birligi (ko'rsatkic h)	2024- yil (fakt)	2025- yil (reja)	shu jumladan:		Mas'ul ijrochilar
					III chorak		
					vazn	reja	
1. Direktor (Jumanazarov Akmal Ro'ziqulovich)							
1.	Milliy etalonlar bazasini qo'shimcha 9 ta etalonga kengaytirish yuzasidan texnik topshiriqlarni ishlab chiqish.	dona	13	9	25	6	“O‘zMMI” DM (L.Saidoripov), MR va O‘ByaTB (X.Alisherov).
2.	1 334 ta menejment tizimlarini joriy etish.	dona	822	1334	25	440	“O‘zTest” DM (J.Kattaxodjaev), MTJEMB (A.Asqarov).
3.	10 ta xalqaro texnik qo‘mitaga tarmoqlardan mutaxassislarni a’zoligini ta’minlash.	nafar	8	10	25	4	Standartlar instituti (A.Davirov), TR va SBDAOB (D.Xodjikariev).
4.	8 500 ta tadbirkorlik sub’ektlariga sohaga oid qonunchilik talablari tushuntirish, mahsulot sifatini oshirish hamda qonunbuzilish holatlarini oldini olish maqsadida profilaktika, seminarlar, ochiq eshiklar va tarqatma materiallar yuborish tadbirlarini o‘tkazish.	dona	8 400	8 500	25	2 100	Inspeksiya (A.Abduraxmanov),D NMB (U.Muxitdinov).
2. Direktorning birinchi o‘rinbosari (Abdukayumov Abdurauf Abdurashidovich)							
1.	1,7 mingta xalqaro standartni qabul qilish.	ta	1400	1700	20	673	Standartlar instituti (A.Davirov), TR va SBDAOB (D.Xodjikariev).
2.	30 ta texnik reglamentni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	ta	19	30	20	8	TR va SBDAOB (D.Xodjikariev).
3.	20 000 nafar tadbirkorlik sub’ektlarining mahsulot sifatiga mas’ul xodimlari malakasini oshirish bo’yicha tayyorlov kurslarida o’qitish.	nafar	–	20 000	20	7 500	Standartlar instituti (A.Davirov),

T/r	Vazifalar (asosiy mezonlar)	Oʻlchov birligi (koʻrsatkic h)	2024- yil (fakt)	2025- yil (reja)	shu jumladan:		Masʼul ijrochilar
					III chorak		
					vazn	reja	
1.	Soha va tarmoqlar boʻyicha amaldagi 3 074 ta standartning Jahon savdo tashkiloti talablariga masligini koʻrib chiqish.	ta	2 578	3 074	25	1 100	Standartlar instituti (A.Davirov), TR va SBDAOB (D.Xodjkariev).
2.	Sanoat va eksportyor korxonalarga xalqaro standartlarda hamda xorijiy davlatlarda mahsulot va xizmatlarga belgilangan talablarni kengroq tanishtirish maqsadida elektron mobil platforma orqali 45 000 ta korxonada soʻrovnoma oʻtkazish.	ta	18 073	45 000	25	11 500	SRTSAOvaEKB (S.Qosimov), Tizim tashkilot rahbarlari.
3.	Xalqaro tashkilotlar va xorijiy hamkor idoralarning grant va texnik koʻmaklarini jalb etish orqali onlayn-oflayn treyning-seminarlar tashkil etish va natijada 300 nafar mutaxassis malakasini oshirish.	nafar	300	300	25	100	XX va IB (A.Orifboev), Tizim tashkilot rahbarlari.
5.	“ Ijro.gov.uz ” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali topshiriq hamda tashkiliy ishlarni muvofiqlashtirish.	foiz	100	100	25	100	INMBI va DB (Z.Gafurov), boshqarma, boʻlim hamda tizim tashkilot rahbarlari.

Izoh: Ijrochilar boshqa ishga o'tgan taqdirda, lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan xodimlar mas'ul hisoblanadi.

**Texnik jihatdan tartibga olish sohasida nazorat inspeksiyasi boshlig'i va uning o'rinbosarlari faoliyatining
2025-yil III-chorak uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)**

T/r	Vazifalar (asosiy mezonlar)	Oʻlchov birligi (koʻrsatkich)	2024 yil (fakt)	2025 yil (reja)	III chorak		Faktni tasdiqlovchi masʼul
					vazn	reja	
1. Inspeksiya boshligʻi – (Abduraxmanov Azamat Abdulkakimovich)							
1.	“Xavf-tahlili” asosida mahalliy korxonalarni oʻrganish va aniqlangan kamchiliklar yuzasidan profilaktika va ogohlantirish xatlarini yuborish.	dona	8 489	8 720	50	2 180	Texnik jihatdan tartibga solish agentligi
2.	Xoʻjalik yurituvchi subektlarda sohaga oid qonunchilik talablarini yetkazish yuzasidan seminar tashkil etish.	dona	6	12	25	3	
3.	Hukumat topshiriqlariga asosan sertifikatlashtirish jarayoni nazoratga olingan mahsulotlar boʻyicha sertifikatlashtirish idoralari tomonidan tayyorlangan hujjatlar toʻplamlarini tahliliy oʻrganish.	dona	1 545	2 112	25	528	
2. Inspeksiya boshligʻi oʻrinbosari – (Niyozov Suxbatjon Abdumutalibovich)							
1.	Xoʻjalik yurituvchi subʼektlarda sohaga oid qonunchilik talablarini yetkazish yuzasidan seminar tashkil etish.	dona	6	6	25	2	Texnik jihatdan tartibga solish agentligi
2.	Sertifikatlashtirish idorasi tomonidan rasmiylashtirilgan muvofiqlik sertifikatlari hujjatlar toʻplamini tahlil qilish.	dona	80	852	50	213	
3.	“Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali topshiriq hamda tashkiliy ishlarni muvofiqlashtirish.	foiz	100	100	25	100	Adliya vazirligi
3. Inspeksiya boshligʻi oʻrinbosari – (Samatov Faxriddin Valijonovich)							
1.	“Xavf-tahlili” asosida mahalliy korxonalarni oʻrganish va aniqlangan kamchiliklar yuzasidan profilaktika va ogohlantirish xatlarini yuborish.	dona	-	8 500	50	2 125	Texnik jihatdan tartibga solish agentligi
2.	Xoʻjalik yurituvchi subektlarda sohaga oid qonunchilik talablarini yetkazish yuzasidan seminar tashkil etish.	dona	-	6	25	2	
3.	“Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali topshiriq hamda tashkiliy ishlarni muvofiqlashtirish.	foiz	-	100	25	100	Adliya vazirligi

Izoh: Ijrochilar boshqa ishga o'tgan taqdirda, lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan xodimlar mas'ul hisoblanadi.